

KIMIYO DARSLARIDA KICHIK GURUHLARDA ISHSHASH

Omon Suvanov

GulDU katta o'qituvchisi

Bugungi kunda davlatimizda barcha soholar dagidek ta'lim sohasidagi innovatsion yondoshuvlar o'qituvchi –murabbiyni o'z ustida tinimsiz ishlashga majbur qilmoqda. Chunki zamondan orta qolmaslik uchun o'qituvchi albatta har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi bilan o'zida yuksak pedagogik mahorat va madaniyatni shakllantirishi zamon talabiga aylandi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga o'qituvchiga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar va kichik guruhlarda ishlash tashkil etmoqda.



Bu kabi metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul echimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchilar tomonidan kichik guruhlarda ishlash, interfaol metodlarning o'rinli, maqsadli, samarali qo'llanilishi o'quvchi, talabalarda muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Masalan bilimlarni mustahkamlashda: O'quvchilar to'rt guruhga bo'linib, har bir guruhga mavzu yuzasidan turli kichik matnlar beriladi.

1-guruhga matnning 1-abzatsi; 2-guruhga 2- va 3-abzatslar; 3-guruhga 4- va 5-abzatslar hamda 4-guruhga matnning qolgan qismi. Guruhlarga ular tomonidan o'rganilgan o'quv materialini loyihalash vazifasi yuklatiladi.

Guruhlar matn bilan tanishib, mazmunini guruhda muhokama qiladi, fikrlar almashiladi, umumlashtiradi. Umumlashtirilgan fikrlar guruh sardorlari tomonidan jamoaga etkaziladi.

Quyida mavzu matnining 1-qismi bo'yicha 1-guruh tomonidan tayyorlanishi lozim bo'lgan loyihalardan namunalar keltiriladi



Xullas, kimyo darslarini samaradorligini oirishda, o'tilgan mazni takrorlashda, mustaxkamlashda, o'quvchi-talabalardni mustqil, erkin fikrlashga o'rgatishda kichik guruhlada ishlash yaxshi natija beradi.